



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI  
INGLIZ TILI INTEGRALLASHGAN KURSI KAFEDRASI

# ZAMONAVIY KO'P MADANIYATLI MAKONDA MUTAXASSISLIK TA'LIMI VA KASBIY TA'LIM MAVZUSIDAGI XALQARO ILMiy-AMALIY ANJUMAN



Digital object  
identifier



Google  
Scholar



OpenAIRE



2025-YIL 13-FEVRAL



**ZAMONAVIY KO‘P MADANIYATLI MAKONDA  
MUTAXASSISLIK TA‘LIMI VA KASBIY TA‘LIM**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



**ZAMONAVIY KO‘P  
MADANIYATLI MAKONDA  
MUTAXASSISLIK TA‘LIMI VA  
KASBIY TA‘LIM**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami

---

Toshkent, O‘zbekiston

2025-yil 13-fevral

**ZAMONAVIY KO'P MADANIYATLI MAKONDA  
MUTAXASSISLIK TA'LIMI VA KASBIY TA'LIM**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
**MATERIALLARI TO'PLAMI**

---

Toshkent, O'zbekiston

**COLLECTION OF MATERIALS**  
from the international scientific and practical conference  
**SPECIALIZED AND PROFESSIONAL EDUCATION IN  
THE CONTEXT OF THE MODERN MULTICULTURAL  
SPACE**

---

Tashkent, Uzbekistan

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**  
международной научно-практической конференции  
**ПРОФИЛЬНОЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ  
ОБРАЗОВАНИЕ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО  
ПОЛИКУЛЬТУРНОГО ПРОСТРАНСТВА**

---

Ташкент, Узбекистан



Zamonaviy ko'p madaniyatli makonda mutaxassislik ta'limi va kasbiy ta'lim /  
–Toshkent. – 2025. – 306 b.

Ushbu to'plamga 2025-yil 13-fevralda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ikkinchi ingliz tili fakulteti O'zbek tili va adabiyoti, Ingliz tili integrallashgan kursi kafedralari tomonidan o'tkazilgan "Zamonaviy ko'p madaniyatli makonda mutaxassislik ta'limi va kasbiy ta'lim" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

Maqola va tezislarning mazmuni, uslubi va imlosiga, keltirilgan ma'lumotlarga mualliflarning o'zlari mas'ul.

**Mas'ul muharrir**

**Zilola Salisheva**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Taqrizchilar**

**Safo Matchon,**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Yashnarbek Avlakulov,**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Tahrir hay'ati**

Nilufar Muxammedova

Gulshan Asilova

Shaxlo Yuldasheva

Aydin Mo'minova

Abdishukur Shofqorov

Muxlisa Hafizova

Xosiyat Abduqahhorova

Ushbu to'plam O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashining 2025-yil 28-fevraldagi 7-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.



## MORFOLOGIK STATISTIKANING AMALIY TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Nasirdinova Oydinniso Dagarovna  
O'zDJTU o'qituvchisi  
[oydinnisonasirdinova0@gmail.com](mailto:oydinnisonasirdinova0@gmail.com)

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995564>

*Annotatsiya.* O'zbek tilining grammatik qonuniyatlari agglyutinatív holatda keng va murakkabdir. O'zbek tilini xorijliklarga o'qitish jarayonida lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda leksik birliklar kabi nutqda eng faol grammatik birliklarni aniqlab olish va faollik darajasini tartiblash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, til korpuslari, unga aloqador morfoanalizatorlar va darajalangan morfologik birliklarning o'quv lug'talarini yaratishda ham morfologik statistik tadqiqotlar yetakchilik qiladi. Bunda grammatik birliklarning miqdoriy tahlili – morfostatistika asosiy metodologik yo'l hisoblanib, nutq birliklarining qo'llanish darajasini "miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga ta'siri" doirasida tekshiradi va ilmiy xulosalaydi.

*Kalit so'zlar:* morfostatistika, darajalanish, jahon morfostatistikasi, o'zbek morfostatistikasi, faol affikslar, nofaol affikslar

*Abstract.* The grammatical laws of the Uzbek language are extensive and complex in the agglutinative state. In the process of teaching the Uzbek language to foreigners, it is important to identify the most active grammatical units in speech, such as lexical units, and to rank their level of activity. In addition, morphological statistical research also leads in the creation of language corpora, related morphoanalyzers and educational dictionaries of graded morphological units. In this, quantitative analysis of grammatical units – morphostatistics is the main methodological approach, which examines and scientifically concludes the level of use of speech units within the framework of the "influence of quantitative changes on qualitative changes".

*Keywords:* morphostatistics, leveling, world morphostatistics, Uzbek morphostatistics, active affixes, inactive affixes.

Morfologik statistika – morfologik birliklarning ma'lum vaqt ko'rsatkichida miqdoriy o'zgarishini aniqlovchi, natijalarni muayyan maqsadda faol-nofaollik darajasiga ko'ra tartiblovchi lingvostatistikaning bir bo'limidir. Lingvistik statistikaning fonostatistika (nutq tovushlari statistikasi), leksikostatistika (leksik birliklar statistikasi), sintaktik statistika (sintaksik birliklar statistikasi) kabi yo'nalishlari ham bo'lib, nutqning turli birliklari ustida belgilangan maqsadlarga ko'ra matematik hisob-kitoblarni olib boradi. Til sathi birliklarining bir lisoniy tizimda yaxlitligini hisobga olsak, nutqdagi voqelanishi ham yagona tizim asosida amalga oshadi. Masalan, o'zbek tilini xorijliklarga o'qitishda "oddiydan murakkabga" yo'nalishidagi o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini shakllantirish uchun ma'lum dastur, darsliklar yoki o'quv qo'llanmalar zarur, bu esa o'z-o'zidan zamonaviy til ko'nikmalarini baholovchi darajalangan dasturga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Masalan, CEFR tizimining o'zbek



tili ko'nikmalarini baholash jarayoniga tatbiqida nutq birliklarining darajalangan tartibi lingvistik asos sifatida qabul qilinadi. Ikkinchi ahamiyatli tomoni shundaki, morfologik birliklarning statistikasi aniqlash o'zbek tili korpusida darajalangan o'quv lug'atlarining joriylanishi – subkorpuslarning yaratilishi hamda lingvistik statistikaning tajribadan o'tgan umumiy mezon va tamoyillarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Jahon tilshunosligida morfostatistik tadqiqotlar, asosan, ma'lum tilning korpusini shakllantirish yo'lidagi izlanishlar – so'zning morfem va morfologik holatini kompyuter tiliga o'girish, morfoanalizatorni yaratish borasida amalga oshirilgan. Asosan, affikslarning miqdoriy o'zgarishlari so'z yasovchi affikslarning unumli yoki unumsiz ko'lamini aniqlash maqsadida olib borilgan. Bu borada so'nggi 30 yillik izlanishlar ingliz tili miqyosifda H.Bayeen, Bauer va Dressler kabi olimlarning ilmiy ishlarida ko'zga tashlanadi. (1) Olimlar affikslarning nutqdagi unumdorlik ko'lamini aniqlashadi, ularni “ko'pdan kanga tomon” daraja tartibini yaratadi va bu izlanishlar nutqning shakli, uslubi, mavzuiy ko'lami, kongitiv va pragmatik jihatlarini qamragan holda amalga oshiriladi.

Morfologik birliklarning nutqda qo'llanish darajasi va ularning chastotasi tadqiqi bilan A.Ch.Piperskiy, O.V.Oshchepkova, V.T.Sadchenko kabi olimlar shug'ullanishdi. Xususan, A.Ch. Piperskiy nemis tilidagi fe'llarning tovush tarkibi ko'p yoki kamlik holatiga ko'ra nutqda qo'llanish darajasini o'rgandi va zamonaviy nemis tilida so'z uzunligi  $\geq 4$  fonemali 73% va so'z uzunligi  $\leq 3$  fonemali 61% fe'llar “yashab qolganligi” haqida ehtimoliy farazlarni ilgari surdi. O.V.Oshchepkovaning tadqiqotlarida ingliz tilidagi 86 ta morfologik qo'shimchalarning ot, sifat va fe'l so'z turkumi doirasida chastota diapozoni aniqlangan. Olimaning tadqiqotlari til hodisalarining ehtimoliy xususiyatlarini chastota usulida ishlab chiqishga qaratilgan. O. V. Oshchepkova bu izlanishlarni Britaniya Milliy Korpusi (BNC) da qo'llangan A va B qatlam so'zlaridagi qo'shimchalar asosida olib borgan. Nutqni idrok etishda muntazamlik zarurligini hisobga olib, qo'shimchani ingliz tilining chastota lug'atidan tanlab olgan. Qo'shimchalarni chastotaning kamayishi tartibida joylashtirilgan. [7]

Ingliz tilshunosi Maykl Kyunion 2008-yilda ingliz tilidagi barcha qo'shimchalar – 1250 dan ortiq so'z yasovchi prefiks, suffiks va morfologik qo'shimchalarni o'z ichiga olgan, 10 000 ga yaqin misollar bilan izohlangan “Affikslar lug'ati”ni yaratdi. Anglashiladiki, ingliz tili morfologik jihatdan flektiv til bo'lishiga qaramay, undagi qo'shimchalarning salmog'i anchagina. Aynan shu kabi lug'atlar tilshunoslikda miqdor va sifat tahlillari uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi. [2]



Yaponiyalik tilshunos olim Yosuke Sasao ingliz tilidagi 118 ta faol so'z yasovchi qo'shimchalarning nutqda qo'llanishini BNC (British National Corpus) imkoniyatlaridan foydalangan holda, eng yuqori chastotali 2000 ta so'z orqali aniqladi va chastotasiga ko'ra ularni A – oddiy daraja, B – o'rta daraja, C – yuqori darajadagi qo'shimchalarga bo'ldi. Flektiv tillarda morfologik-sintaktik qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar miqdoriga nisbatan ancha kamligi sababli bu kabi darajalanish tadqiqotlarda deyarli yoritilmagan. [6]

O'zbek tilshunosligida o'tgan asrda morfostatistik tadqiqotlar leksikostatistikaga qaraganda nisbatan tor doirada amalga oshirilgan. Asosiy e'tibor badiiy va publitsistik matnlar tarkibida o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlarning statistik holatiga qaratilgan. O'zbek tilida lingvostatistikaning asoslarini yaratish to ma'noda S.Rizayev tadqiqotlari bilan bog'liq. Olim ilmiy ishida yangi so'zlarning faollik darajasini, morfologik va etimologik miqdoriy tahlilini so'zlarning kamayib borish tartibida tizimlaydi. Tadqiqot matn shakliga ko'ra faqat yozma matnlarni, morfologik jihatdan esa fe'llarning o'zak morfemasiga ko'ra nutqda qo'llanish holatini tekshiradi. Bunga ko'ra fe'l so'z turkumi nutqda qo'llanish darajasiga ko'ra bog'lovchi va olmoshlardan keyingi o'rinni egallaydi. S.Rizayev lingvostatistika sohasidagi ishlarning salmog'i birmuncha kamligi, ayniqsa, so'zshakllar tarkibidagi barcha morfemalarning umumiy statistik strukturasi hanuzgacha yaratilmaganligihaqida fikr bildiradi. [4]

EHM orqali morfologik birliklar ustida amalga oshiriladigan lingvistik tahlillarni osonlashtirish maqsadida tadqiq etilgan Sh.Hamroyevaning "O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti" (5) nomli dissertatsiyasida boshqa so'z turkumlari qatori fe'l so'z turkumi doirasidagi qo'shimchalarning so'zdagi morfematik qurshovi va ularning turli pozitsion modellari yaratildi.

O'zbek tilida so'zlarning morfologik shakllari tizimi murakkab va miqdori juda ko'p. Ayniqsa, fe'l so'z turkumi shakllari alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun A.Po'latov o'z kitobida shunday yozadi: "O'zbek tili grammatikasi (yuqorida ko'rsatilgan tizimda) to'la o'rganib chiqilmagan, ya'ni sistemalashtirilmagan, formallashtirilmagan. Masalan, fe'l, ot va boshqa turkumlarga oid so'zshakllar, gap konstruksiyalari to'liq ro'yxatga olinmagan (masalan, o'zbek tilida birgina ishlamoq fe'lining shakli taxminan 100 000 dan oshadi, ingliz tilida esa taxminan 150 tagina shakli mavjud, xolos)". Bular haqidagi ma'lumotlar A.Po'latov, T.Mo'minova, I.Po'latovalar qalamiga mansub "Dunyoviy o'zbek tili. O'zbek tilida fe'l shakllari va ularning rus, ingliz tilidagi ko'rinishlari" (Toshkent: Universitet, 2003) asarida keltirilgan". () Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi morfologik shakllar boshqa tillarning



grammatik shakllaridan batamom farq qiladi, juda boy imkoniyati, kombinatsiyalarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. [3]

Xulosa shuki, o'zbek tilida morfologik shakllarning nutqda qo'llanish darajasini aniqlash morfologik qo'shimchalarning "oddiydan murakkabga", "faoldan nofaolga" tomon darajalanishiga asos bo'ladi, bu esa amaliyotda o'zbek tili grammatik qonuniyatlarini xorijliklarga aniq, oson va bosqichma-bosqich o'rgatish imkonini berishi bilan dolzarbdir. Til birliklarining nutqda qo'llanishiga ko'ra darajalanishi ularning miqdoriy ko'rsatkichlarini – statistik holati, chastotasi va o'zaro qiyosiy matematik tahlillarni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baayen, R. Harald (1993), On frequency, transparency, and productivity. In: Geert E. Booij and Jaapvan Marle(eds), "Yearbook of Morphology 1992". Dor drecht: Kluwer Academic Publishers, 181-208.
2. Maycl Quinion. Affixes: The blocks of English. [Dictionary of affixes | morforetem](#)
3. Po'latov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. 100 b.
4. Rizayev S. O'zbek tilining lingvostatistik tahlili. Diss. – Toshkent, 2008. 300 b.
5. Xamroyeva Sh. O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti. Avtoreferat. – Farg'ona, 2021. 76 b.
6. Yosuke Sasao. List of affixes // [www.academia.edu/2993726/List\\_of\\_affixes](http://www.academia.edu/2993726/List_of_affixes).
7. Ощепкова О. В. К вопросу категории частотности суффиксальных элементов английского слова. // Вестник Санкт-Петербургского университета, сер. 9, 2007. вып. 4, Ч. П. С. 144-148.